

# Bitiruvchimiz “Mehr-saxovat” ko’krak nishoni bilan taqdirlandi!

Joriy yilning 10-oktyabr kuni **O’zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi** tomonidan koronavirus pandemiyasi davrida, shuningdek, turli tabiiy ofatlar, favqulotda holatlar tufayli yurtimiz boshiga tushgan sinovli kunlarda mavjud xavf-xatarlarga qarshi kurashda, ularni oqibatlarini bartaraf etishda **MARDLIK** va **JASORAT** namunasini ko’rsatgan, milliy qadriyat va an’analarimizni munosib davom ettirib, mehr-oqibat, saxovat, **HIMMAT** va **OLIJANOBLIK** fazilatlarini ulug’lab kelayotgan, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini har tomonlama qo’llab-quvvatlash va ularga **BEMINNAT KO’MAK** berish borasidagi ishlarni umumxalq harakati darajasiga ko’tarishga katta hissa qo’shgan, jamiyatimizda tinchlik-osoyishtalik, birlik va hamjihatlik muhitini mustahkamlashda faol ishtirok etib, **BEG’ARAZ HOMIYLIK** yordami hamda ezgu ishlari bilan ko’pchilikka alohida **O’RNAK BO’LAYOTGAN** yurtdoshlarimiz orasida Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti bitiruvchisi, xo

zirgi kunda O’zbekiston Respublikasi Innovatsion Rivojlanish Vazirligi boshqarma boshlig’i **Firdavs Ne’matzoda** “Mehr-saxovat” ko’krak nishoni bilan taqdirlandi.

***Biz siz bilan faxrlanamiz, aziz bitiruvchimiz!***



